

TA'LIMDA O'QITISH JARAYONINING YANA BIR USULI HAQIDA

M.X.Aliyeva¹ 1. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Aliyeva. M.X.
O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika
instituti,
Samarqand,
O'zbekiston
m.aliyeva@uzfi.uz

Annatasiya: Maqolada ta'lim sohasidagi islohatlar va ta'limning zamonaviy ko'rinishidagi uslublari, ta'lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar, mustaqil bilimni mustahkamlash haqida hamda ta'lim texnologiyasining modellari keltirilgan bo'lib, o'qitishning yana bir usul – interfaol tabaqalashtirib o'qitish usuli qarab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim sohasi, texnologik ta'lim, interfaol maqsad, ta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, rivojlantiruvchi maqsad, model, kreativ yondoshuv, pedagogik yondoshuv, kommunikativ yondoshuv.

Аннотация: В статье представлены реформы в сфере образования и методы в современной форме обучения, воспитательные, образовательные и развивающие цели, укрепление самостоятельного знания и модели образовательных технологий.

Ключевые слова: Образовательное поле, технологическое образование, интерактивная цель, образовательная цель, развивающая цель, модель, творческий подход, педагогический подход, коммуникацион.

Annotation: The article presents reforms in the field of education and methods in the modern form of education, educational, educational and developmental goals, strengthening independent knowledge and models of educational technologies.

Key words: Educational field, technological education, interactive goal, educational goal, educational goal, developmental goal, model, creative approach, pedagogical information, principle, interaction, communication.

Kirish

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng eng ahamiyatli va ustuvor vazifa sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biri - ta'lim sohasini isloh qilish masalasi bo'ldi. Bu boradagi asosiy talablardan biri – kadrlar tayyorlashda sifat darajasini yaxshilashdir. Bu talabga javob berish uchun boshlang'ich ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan sohani talab darajasidagi adabiyotlar bilan boyitish maqsadga muvofiq deb topildi va bu borada bir qancha ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining isloh qilinishi va kadrlar tayyorlash milliy dasturlari qabul qilinishi natijasida o'quv tizimining strukturasi ham o'zgardi. O'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda. O'qitishning an'anaviy usullaridan farqli singari yana bir usul - interfaol tabaqalashtirib o'qitish usulini qarab chiqamiz.

O'qitishning interfaol usulini bir necha qismga bo'lish mumkin. Bular jumlasiga: guruhlarda ish olib borish, o'qitish jarayonini munozara

(diskussiya) sifatida tashkil etish, qiziqarli dialoglar uyushtirish va tashkil qilish, turli xil modellashirilgan qiziqarli uyinlar sifatida tashkil qilish, intellektual savol - javoblar tayyorlash va aqliy mashg'ulotlar kiradi.

Guruxlarda ish olib borishda auditoriyadagi talabalarni bir necha guruhlariga bo'lib chiqib, ularga variantlar beriladi. Bu variantlar albatta, o'tilgan mavzu yuzasidan bo'lib uni o'qitayotgan pedagog tomonidan tayyorlangan bo'ladi. Barcha vazifalarga javobni talaba topa olishi mumkin bo'lgan manbalardan ya'ni, Internet tarmog'i, kutubxonalardagi darsliklardan, jurnallardan va oddiy kundalikda uchraydigan misollarda berilishi kerak buladi. Birinchi bosqichdanoq, talabalarning bilimlilik darajasi aniqlanila boshlaydi. Bu darajalar, bilmaydiganlar, qisman biladiganlar, darsda faqat o'qitish jarayonidagi mavzu yuzasidan biladiganlar va mustaqil bilim oladigan, bilimdonlar – qiziquvchan haqiqiy ilm egalariga bo'linib qoladi.

Endi esa o'quvchilarning darajasiga qarab, vazifalarni osonlashtirilgan yoki aralashtirilgan va qiyinlashtirilgan ko'rinishlari berilib, nazorat savollari beriladi.

Ma'lum vaqt ichida bilim oluvchi tayyorlanib kelgan variantlar asosida fikrlarini bayon qilishi kerak. Buning uchun 20 minutdan 30 minutgacha vaqt ketadi. Bu vaqt davomida talaba fikrini qog'ozga tushirib, mulohazalarini mushohada qilish uchun guruhning munosabatini eshitishi ham mumkin. Guruhda bunday yondashuv natijasida har bir talaba o'zining va o'zgalarning fikrini eshitish imkoniyatiga ega buladi va o'z fikrini isbotlashga harakat qiladi. Bahsda barcha darajadagi talabalar qatnashishi tufayli vujudga keladigan munozara boshlanadi. Tortishuvlar natijasida masalaning mo'kiyatini tushunish imkotiyatiga ega bo'lishadi. Munozara jarayoni bilim darajalari bilan bir – biridan farq qiladigan talabalarni guruhdagi tengdoshlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan tarjbatma materiallar, o'quv darsliklardan tashqari o'qituvchi tomonidan tayyorlangan ko'rgazmali qurollar, test savollari va talabaga o'z-o'zini bilimli qilish kabi ko'nikmalarni beruvchi barcha didaktik materiallarning avvalo 3ta asosiy maqsadini karaymiz:

Ta'limiy maqsad – talabalarning mavzular bo'yicha bilimni aktuallashtirish;

Tarbiyaviy maqsad – dars jarayonida xayotiy misollarda tushunishiga, o'z bilimlarini sistemali ravishda to'ldirib borishga va qiziqishlarini oshirish;

Rivojlantiruvchi maqsad – yuqorida ko'rsatilgan ko'nikmalarni talaba qanchalik tushunib yetganligi va mavzu bo'yicha va mavzudan tashqari mustaqil bilim beruvchi manbalardan fikrlash tafakkurlarini o'stirishga erishishni ta'minlash yuzasidan izlanishlar olib borish zarur.

Buning uchun o'z-o'zini bilimli qilishga talabani majbur etadigan yechimlarni izlashda albatta o'qish jarayoni va sharoitning roli ham katta ahamiyatga ega. Modelli darslarni tashkil etishning bir ko'rinishi ya'ni

muhokama modeli qarab chiqamiz. Muhokama modeli talabalarning aqliy jihatdan mashq (trenerovka) qilishiga chorlaydi.

Ta'lim texnologiyasining innovasion modeli – bu belgilangan vaqt va mavjud sharoitda asosiy maqsadni amalga oshirish va bashorat qilingan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan ta'limning eng maqbul shakli, vositasi, usuli, [metodikasi va texnologiyasining majmuidir](#).

Ta'lim texnologiyasining innovasion modeli quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- o'qitish maqsadlarini aniq ifodalash;
- nazariy va amaliy materialni tanlash hamda uni o'quvchilarga yetkazishning yo'llarini aniqlash;
- mavzuning tayanch [tushuncha va iboralarini ajratish](#);
- o'qishga qiziqtirishga yo'naltirilgan usul va texnologiyalarni belgilash;
- o'quv jarayonini yakka va jamoa holda [tashkil etish](#);
- o'quv mashg'ulotlari rejasini tuzib chiqish, unga asoslangan holda o'quv faoliyatidan oldindan kutilayotgan natijalarni aniqlash;
- kutilayotgan natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan o'qituvchi vazifalarni belgilashdir.

O'quv faoliyatida oldindan kutilayotgan natijalar – bu o'qitish natijasida o'quvchi egallashi va u tomonidan bajarilishi zarur harakatlar bo'lib, bu harakatlar orqali o'qituvchi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni dars mashg'ulotida qo'yilgan o'quv maqsadiga mos ekanligini bilish va haqqoniy xulosalash (baholash) imkoniga ega bo'ladi.

Bunda:

- o'quvchining dastlabki bilimlari aniqlanadi;
- teskari aloqani yo'lga qo'yadi va ta'lim vositalarini, ya'ni tezkor so'rov, bahs-munozara, tarqatma materialari, o'quv topshirig'i natijalari taqdimotini baholashni aniqlaydi;
- loyihaviy faoliyat natijasini jadval ko'rinishida, ya'ni o'quv jarayonining innovatsion ta'lim texnologiyasi modeli ko'rinishida rasmiylashtiradi;
- o'quv mashg'ulotida qo'llanadigan ta'lim texnologiyasini rejalashtirishni texnologik xarita ko'rinishida [amalga oshiradi](#);
- o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi – har bir o'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi tuzilishining jarayonli bayoni aks etgan hujjat bo'lib, u o'quv mashg'ulotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan faoliyat ketma-ketligining mazmunini yoritib beradi;
- o'quv jarayonining tashkiliy-didaktik ta'minotini ishlab chiqadi va uni texnologik xaritaga ilova ko'rinishida rasmiylashtiradi. Texnologik xaritaning kengaytirilgan ko'rinishi esa dars mashg'uloti loyihasining asosiy mazmunini ifodalaydi.

O'quv mashg'uloti loyihasini tayyorlash. Bunda akademik litseylarda o'qitiladigan matematik [analiz asoslari](#) bo'limini o'qitish hajm va mazmuni

jiatidan iyerarxiyaga asoslangan – “Eng katta”, “Katta”, “O‘rta” va “Kichik” modullarga bo‘linadi. Bu modullarning oldiga qo‘yilgan ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlari hamda ularga ajratilgan vaqt belgilanib, har bir o‘quv mashg‘uloti ichidagi kichik modullar orqali beriladigan bilimlar orasidan tayanch tushunchalar aniqlanadi. Bu bilimlarni o‘quvchilarga qaysi dars mashg‘ulot turi orqali berilishi va har bir kichik modullarda qo‘llaniladigan [pedagogik usullar](#), axborot-kommunikasiya texnologiyalari va didaktik materiallarning turi hamda qo‘llanish joylari ko‘rsatib beriladi.

Dars mashg‘ulotlarini loyihalashtirishda Davlat ta’lim standarti, malaka talablari va shu asosida ishlab chiqilgan o‘quv reja, o‘quv [fan dasturi](#), darslik, o‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanma va metodik tavsiyanomalar hamda o‘quv faniga tegishli bo‘lgan boshqa o‘quv materiallari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

MUSTAQIL BILIM OLISHDA TABAQALASHTIRISH USULINI QO‘LLASH

I. BILIM DARAJASINI ANIQLASH:

A) USLUBI:

- * Masala yechish,
- * Test savollari,
- * Og‘izaki surov-nazoratlari,
- *(nutqi, tushuntira olish)

B) MEZONLARI:

- * reyting ballari, a‘lo,
- * yaxshi
- * o‘rta,
- * qoniqarsiz

V) TOPSHIRIQLAR TUZISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- *Yengil,
- *O‘rtacha,
- *Murakkab.


MEZONLAR

- 89 - 100 (a‘lo),
- 73 – 88 (yaxshi),
- 60 – 72 (o‘rta),
- 0 - 59 (qoniqarsiz)

II. MUSTAQIL BILIM OLISH UCHUN TOPSHIRIQLAR:

REFERAT

- Yangi manba‘lar – bibleoteka, internet, jurnallar.
- Axborot texnologiyalaridan foydalanish - dasturlashtirish, hisoblash usullaridan foydalanish.
- Ijodiy xarakterdagi izlanishlar-Animasityalash, vizuallashtirish, modellashtirish.



Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tamoyillardan kelib chiqib, akademik liseylarda va institutlarda o'qitiladigan fanlardan mashg'ulotlarini loyihalashtirishda ta'lim texnologiyasi innovasion modelining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Respublikamizda keng qamrovli loyihalar va platformalar tashkillashtirilgan.

Suhbat davomida o'quvchilardan ilgari suriladigan ilmiy holatlarni asoslash va isbot qilish, tekshirilayotgan hodisani tahlil etish, xulosalarni mustaqil ifodalab berish talab qilinadi. O'zlashtirilgan materialdan yangisini o'zlashtirish uchun sistematik va doimiy foydalanish hamda u bilan kerakli bog'lanishni o'rnatish fikrlashni ko'proq aktivlashtiradi va bilimlarni chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Ayniqsa, boshqa manbalardan foydalana bilish darajasi yuqori bo'lgan talabalarga mavzudan tashqari qiziqarli misol va mulohazalarni erkin bayon qilishni taklif etish muhim rol o'ynaydi.

Bilimlarni o'zlashtirilishini nazorat qilishda turli test savollaridan tashkil topgan savollar variantlari tuziladi. Bunday testlarni hozirgi kunda turli adabiyotlarda (manbalarda) turli bosqich ta'lim muassasalarida soddalashtirilgan, o'rta va murakkab shakllari ko'rinishlari ham mavjud.

Interfaol o'qitishning maqsadi, ta'lim jarayonini aniq va to'g'ri tashkil etishdan iborat bo'lib, barcha fanlar singari fizika fanini o'qitishda qo'l keladigan jihatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ayniqsa, masalalar yechish darsida o'qituvchi har qaysi mavzuga oid masalalardan tashqari, hayotiy, uy sharoitida qo'llab ko'rish mumkin bo'lgan soddaroq tajribalar hamda laboratoriya mashg'ulotlari bilan ko'rsatish imkonini ham hisobga olishi

kerak. O'quvchilar shu mavzuga oid qonunlarga mos misollarni mustaqil bilim olishda qiziqib o'qiydigan materiallar bilan boyitish kerak.

Xulosa va taklif

Darslar interfaollilik natijasini berishi uchun dars davomida va darsdan tashqari mustaqil ta'limga (o'z-o'zini bilimli qilishga) fan o'qituvchilari katta ahamiyat berib, har xil ma'lumotlar, manbalardan oqilona foydalanish va shu bilan birga mukammal modellar va rasmlardan foydalana bilish yo'llari – yo'riqlari ko'rsatib borilsa, ustozlar va o'rgatuvchi trenerlar tomonidan kreativ yondoshilsa maqsadga muvofiq bo'ladi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.:1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi "Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlanishni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-381-son Qarori.
3. S.S. G'ulomov, Sh.A.Ayupov, A.X.Abdullayev "Ta'lim tizimiga AKTning keng joriy etishdagi strategik va ustuvor yunalishlari" Ta'lim va tarbiya, 2003, №1-2, 5-9 bet.
4. J.O'.Muxammadiyev "Matematika va informatika o'qitish metodikasi" kursidan o'quv– metodik majmua, Toshkent. 2019.
5. K.T.Olimov, L.P.Uzokova va boshkalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent, "Fan" 2009.